



UDK:821.111-34.09

Anora AZIMOVA,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: aanora239@gmail.ru

DSc, professor M. Umarova taqrizi asosida

### INGLIZ XALQ ERTAKLARIDA SEHRLI MAVJUDOTLAR VA BUYUMLAR - MAJOZIY OBRAZLAR SIFATIDA

Аннотация

Ertaklarda foydalanilayotgan sehrlil mavjudotlar va buyumlarning asosiy vazifasi nafaqat o'quvchilarni jalb qilish, balki majoziy ma'nolar orqali yosh kitobxonlar ongida va dunyoqarashida tarbiyaviy ta'sir uyg'otish. Sehrlil mavjudotlarda qatoriga parilar, gnomlar, ajdarlar va g'ayritabiiy kuchga ega hayvonlar ham kiradi. Sehrlil buyumlardan eng ko'p ishlatiladiganlari esa ko'zgu, shkaf, qilich, jom va uzuk kabilarni misol keltirish mumkin. Ular orqali yozuvchilar yaxshilik va yomonlik kurashini, inson axloqini, iymon va umid, qurbonlik va najot g'oyalarini, kuch va mas'uliyat, nafs va sadoqat kabi insoniy va axloqiy tushunchalarni majoziy shaklda ifodalagan.

**Kalit so'zlar :** Majoziy ma'no, sehr-jodu, parilar, kentavrlar, faun, Aslan, ko'zgu, uzuk, fantastik ifoda.

### В АНГЛИЙСКИХ НАРОДНЫХ СКАЗКАХ ВОЛШЕБНЫЕ СУЩЕСТВА И ПРЕДМЕТЫ КАК СИМВОЛИЧЕСКИЕ ОБРАЗЫ

Аннотация

Главная задача волшебных существ и предметов, используемых в сказках, заключается не только в привлечении читателей, но и в оказании воспитательного воздействия на умы и мировоззрение юных читателей посредством образного смысла. К волшебным существам относятся феи, гномы, драконы и животные со сверхъестественными способностями. Наиболее часто используемые волшебные предметы — это зеркала, шкафы, мечи, кубки и кольца. С их помощью писатели образно выражали борьбу добра и зла, человеческую мораль, идеи веры и надежды, жертвенности и спасения, человеческие и моральные понятия, такие как власть и ответственность, похоть и верность.

**Ключевые слова:** Символический смысл, магия, феи, кентавры, фавн, Аслан, зеркало, кольцо, фантастическое выражение.

### MAGICAL CREATURES AND OBJECTS IN ENGLISH FOLK TALES - AS SYMBOLIC IMAGES

Annotation

The main task of magical creatures and objects used in fairy tales is not only to attract readers, but also to have an educational effect on the minds and worldview of young readers through figurative meanings. Magical creatures include fairies, gnomes, dragons, and animals with supernatural powers. The most commonly used magical objects are mirrors, wardrobes, swords, goblets, and rings. Through them, writers figuratively expressed the struggle between good and evil, human morality, the ideas of faith and hope, sacrifice and salvation, and human and moral concepts such as power and responsibility, ego and loyalty.

**Key words:** Metaphor, magic, fairies, centaurs, faun, Lion, mirror, ring, fantastic expression.

**Kirish.** Adabiyotda ertak janri ilk vujudga kelgan janrlardan biri bo'lib, hatto yozuv paydo bo'lishidan avval og'zaki tarzda odamlar bir-biriga turli xil mazmundagi ertaklarni aytib yurishgan. Shu sababli, ertaklar xalq og'zaki ijodining yuqori aksiologik xususiyatiga ega janri hisoblanadi. U muayyan mamlakatning lingvistik, mafkuraviy, tabiiy-geografik o'ziga xosligi va madaniy etnik o'ziga xosligini o'zida mujassam etadi. Hayot haqiqati bilan bog'liq bo'lib, xayoliy va hayotiy uydirmalar asosiga qurilgan, didaktik g'oya tashuvchi og'zaki hikoyalarda ertak deyiladi [1]. Ertaklar epik folklorning eng sermahsul janri. Dunyoning hamma qit'alarida, barcha xalqlarda ertaklar va uning xalq orasida tashib yurgan ertakchilari, uning nazariyachilari – ertakshunoslar bor. Ertak so'zining qachondan beri aytilishini aniq ko'rsatish qiyin bo'lsa-da, uning juda qadimdan borligi, xalq og'zaki ijodining ilk adabiy janrlaridan biri ekanligi ma'lum. So'zning lug'aviy ma'nosi - aytish, aytmoq, hikoya qilmoq ma'nosini bildiradi. M.Qoshg'ariy o'z «Devonu lug'otit turk» asarida turkiy xalqlarda uning «etuk» atamasi bilan yuritilganini qayd etadi. Unga ko'ra, etuk «biror voqeani og'zaki hikoya qilish» ni anglatadi [2]. Ertak o'zining «kundalik» maqsadini o'yin-kulgi va ta'lim sifatida belgilab, o'quvchini badiiy muhit yordamida jamiyatning aksiologik

ko'rsatmalari tizimi bilan tanishtirish orqali tarbiyaviy funksiyani amalga oshiradi. Matnning g'oyaviy-badiiy o'ziga xosligini ochib berishda adabiy asarning onomastik komponenti muhim o'rin tutadi. Ertak janridagi asarlarning antroponimik korpusini va qahramonlarning xulq-atvor xususiyatlarini tahlil qilish asarni chuqurroq tushunishga, o'quv motivatsiyasini oshirishga, o'quvchining tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga yordam beradi va nuqtai nazardan, atrofda voqelik bilan bog'liq bo'lgan badiiy haqiqatni modellashtirishga yordam beradi [3]. Ertaklarda mavzular va qahramonlar rang-barangligi, ularning didaktik va majoziy ahamiyatga ega ekanligi eng asosiy omil hisoblanadi. Zero, aynan mana shu qahramonlar – obrazlar orqali biz bolalarga insoniy xislatlarni, mehr-muhabbat, oqibat, do'stlik, mehnatsevarlik va vatanparvarlik kabi ijobiy xarakterlarni yoki buning aksi o'laroq salbiy jihatlar dangasalik, ikkiyuzlamachilik, sotqinlik va yovuzlikka qarshi kurashish kerakligi haqida ilk tushunchalarni beramiz [4]. Ingliz va o'zbek ertaklari bir-biridan tubdan farq qiladi. O'zbek xalq og'zaki ijodidagi ertaklar maishiy hayot ta'sirida vujudga kelib, asosiy mavzu oila, mehr-oqibat, halollik, do'stlik kabi insonparvar tiyg'ular tasviriga bag'ishlanadi. Ingliz ertaklari esa bizga milliy afsonalar, rivoyatlar, balladalar haqida

tasavvur beradi, shuningdek, bu boy mamlakatning ma'naviy va moddiy madaniyatiga xos ayrim unsurlar bilan tanishtiradi. Bularning barchasi Angliyaning madaniyati va turmush tarzini bilish, uning tarixiy taraqqiyotining turli bosqichlarini o'rganish imkonini beradi. Ulardagi asosiy mavzu sifatida hayvonlar va sehr-jodu ajratib ko'rsatiladi. Jumladan, sehrli ertaklar tarkibiga jodugarlar, gigantlar va arvohtar haqidagi rivoyatlar ham kiradi.

**Adabiyotlar tahlili.** Ingliz ertaklari qadimda faqat xalq og'zaki ijodi namunasi sifatida ajdodlardan avlodlarga og'zaki tarzda yetib kelgan. Biroq, XIV asrda yashab ijod qilgan yozuvchi va shoir Jeoffrey Chaucer o'zining "Canterbury tales" asarida bir nechta ertaklarni jamlab, ingliz tili va adabiyoti rivojiga o'zining munosib hissasini qo'shgan. Bu asar maishiy mazmunda bo'lib, bir sayyohning manzilga yetguncha bo'lgan vaqt mobaynida turli xil yo'lovchilardan eshitgan qisqa hikoyalar ketma-ketligidan iborat. Hikoya janrida yozilgan bo'lsada, ingliz adabiyotidagi ilk ertak namunalari sifatida ta'kidlanadi. Keyingi davrlarda ingliz folkloriga oid "Jack and the beanstalk" va "Hansel and Gretel" ertaklari, hamda Lewis Carolning "Alice's Adventure in Wonderland", Oscar Wildening "The happy Prince", J.M.Barriening "Peter Pan" ertaklarida ham sehr-jodu elementlari asosiy mazmuni ifodalash usuli sifatida xizmat qilgan. Zamonaviy ingliz ertaklarida ham hanuzgacha majoziy xarakterli qahramonlar ya'ni sehrgarlar va ajarholar qatnashib kelmoqda, jumladan J.R.R.Tolkien "The Hobbit", "The Lord of the Rings" va C.S.Lewis "The Chronicles of Narnia".

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mavzuni yoritishda qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tavsifiy, struktural tahlil, retrospektiv, tematik va komparativ tahlil usullaridan foydalanildi. Ingliz ertaklaridagi har bir davrda eng mashhur bo'lgan ertaklardagi asosiy mavzu va majoziy obrazlar, ya'ni sehrli mavjudotlar va buyumlar qiyosan tahlil etilgan.

**Tahlil va natijalar.** Majoziy obrazlar ertaklarda juda ko'p uchraydigan badiiy usul hisoblanadi. O'zbek adabiyotida Hamza, G'afur G'ulom, Hamid Olimjon, G'ayratiy, keyinchalik Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Rauf Parfi kabilar ijodida majozning turli namunalari mavjud. Tasviriy san'atda majoz ba'zi mavhum ma'no va tushunchalarni aniq va tasavvur eta oladigan qiyofa, shakllarda tasvirlashni anglatadi. Masalan, adolatparvarlik — qo'lida tarozu kutarib turgan ko'zi bog'liq ayol; go'zallik va nafosat — ma'buda Afrodita qiyofasida namoyon bo'ladi. Majoz tasviri uning nima ma'no yoki tushunchaga qiyos etilayotganini tushuntiradigan unsurlar bilan ifodalanadi. Jumladan, san'at majoz bo'lgan Apollonning qo'lida arfa tasvirlangan. Majoz Yunon va Rim, Italiya Uyg'onish san'atida, shu san'at an'alarini davom ettirishda keng ishlatilgan. XIX-XX asrlar realistik san'atida majoz ijtimoiy siyosiy ma'noga ega bo'ldi. XX asrda majoz mahobatli haykaltaroshlik va rangtasvirda, shuningdek, plakat va siyosiy hajviy (karikatura) asarlarida keng tarqaldi." [5]. O'zbek tilining izohli lug'atida "majoz" atamasiga quyidagicha ta'rif berilgan: "Majoz - o'tish joyi, boshqacha aytish, nomlash, tasviriy ifoda. So'z yoki iboraning o'z ma'nosidan, boshqa, ko'chma ma'noda ishlatilishi va shunday ma'noda ishlatilgan so'z, ibora, metafora, allegoriya. Demak, lug'aviy ma'nosiga ko'ra metafora Sharqda qo'llangan majoz -ko'chim iborasiga mos keladi [6]." Majoziy obrazlar badiiy matnda voqelikni bevosita tasvirlashdan ko'ra, uning ma'nosini, hissiy-ruhiy holatini va ijtimoiy kontekstini figurativ yoki ramziy shaklda ifodalovchi vosita sifatida qaraladi [7]. Majoz asarlarining badiiy-estetik kuchini va ta'sir doirasini oshirish uchun xizmat qiladi. Joseph Jacobsning "English fairy tales" kitobining kirish qismida muallif ertaklar haqida shunday ta'rif bergan "Ertaklar ya'ni ingliz tilida "Fairy tales", o'z tarkibida "fairy" ya'ni sehrli, g'ayrioddiy vositalarni - parilar, gigantlar, mittilar, gapiruvchi hayvonlarni

o'z ichiga olgan qisqa hikoyalardir. Bu vositalar mamlakatimizning bir vaqtlar mashhur bo'lgan ta'rifini "Quvnoq Angliya" ("Merrie England") ni oqlaydi va savodsiz qatlamlar orasida ham quvnoqlik va hazil-mutoyiba mavjud ekanligidan dalolat." [8]

Ingliz ertaklarida sehrli parilar bilan bog'liq ertaklar ko'p uchraydi. Jumladan, "Peter Pan", "Cindrella" kabi ertaklarda parilar insonlarga yordam beruvchi, haloskor, ilojsiz vaziyat va muammolarga yechim beruvchi sifatida parilardan foydalanilgan. Pari (Fairy) eski fransuz tilidagi "faerie" ya'ni g'ayrioddiy qobiliyatlarga ega mavjudotlar uchun ishlatilgan. o'rta asrlarda esa ruhlar uchun ishlatilgan. [9] Zamonaviy adabiyotda esa bolalar ertaklarida tasvirlanayotgan kichkina, g'ayrioddiy uchadigan qanotlarga ega, ko'zni qamashtiruvchi nur taratadigan mavjudotlarga nisbatan pari atamasi ishlatilayapti, masalan, Tinkerbell "Peter Pan" ertagidagi. "The Chronicles of Narnia" ertagida ham bir qator sehrli mavjudotlar qatnashgan, Aslan, kentavr, faun, ajdarlar va h.k. Muallif bu mavjudotlarni yunon, rim, kelt va xristian mifologiyasidan foydalanib yaratgan. Ularning har birining majoziy ma'nosi mavjud bo'lib, asosiy qahramonlardan biri bo'lgan Aslan- adolat, ezigulik, xaloskorlik, aynan xristian diniga ko'ra Iso Masih kabi qayta tirilish g'oyalari ifodalagan; Kentavr (yarim ot, yarim odam) - kuch-qudrat va aql- zakovat uyg'unligi timsoli bo'lib, Narnia saltanatidagi eng mas'uliyatli vazifalarni bajargan; Faun (yarim echki, yarim odam) - vijdon va ichki kurash timsoli bo'lib, Narnia dunyosida xiyonatdan so'ng vijdon azobi va sadoqat g'oyalari o'zida mujassam etgan. "Jack and beanstalk" ertagidagi dev esa ertakdagi Jack uchratgan eng katta qo'rquv, qiyinchilik bo'lganligi uchun, uning majoziy ma'nosi inson hayotida uchratadigan hayot sinovlari, hokimyat va boylikni qo'lga kiritishga bo'lgan cheksiz xohish va istaklari ifodasidir.

Nafaqat, sehrli mavjudotlar, balki sehrli buyumlar ham ertaklardagi g'ayritabiiy dunyoni tasvirlash va insonlarga ma'naviy axloq qoidalarini izohlash uchun xizmat qilgan. Ingliz ertaklaridagi "Snow white" da o'gay ona o'z go'zalligini e'tirof etish uchun foydalangan "ko'zgu", aslida bosh qahramonni yovuzliklardan himoya qilish vositasi sifatida foydalanilgan [10]. "The Lord of the Rings" ertagidagi butun dunyoni boshqarish kuchini beruvchi, ammo o'z egasini axloqan buzadigan "sehrli uzuk" orqali muallif insonlardagi hokimyatga bo'lgan qiziqish va nafs tuyg'ularini tasvirlamoqchi bo'lgan [11]. "The Chronicles of Narnia" ertagidagi "shkaf" bolalarni sehrli dunyoga eltuvchi yo'lak vazifasini bajarsada, aslida u hayotdagi yangi sarguzashtlar, ichki ruhiy kamolot va hayotning taxmin qilib bo'lmas taqdir sinovlarini ifodalaydi. "Jack and beanstalk" ertagida ham bir nechta sehrli buyumlar majoziy ma'nolarga ega: loviya - ertakning boshida Jackning onasi tomonidan hadya etilgan bu oddiy urug'lar, qahramonga hayot tomonidan inom etilgan imkoniyatlarni; arfa (musiqqa asbobi) - muammolarga qarshi yechim va ilohiy ko'mak sifatida; loviya daraxti - ertakda qalin, ulkan, cheksiz deya tasvirlangan bu daraxt aslida insoniyat umr so'qmoqlarini, cheksiz sinovlarga to'la hayot yo'limizni ifolash kuhun xizmat qilgan.

**Xulosa va takliflar.** Chin ma'noda, adabiyot inson ongi bilan bir qatorda ruhini ham davolaydi va unga ma'naviy ozuqa hadya etadi. Agarda biz shuni yosh unib-o'sib kelayotgan avlodlarga ham birdek o'rgata olsak demak ular ham ma'nadan yetuk komil inson bo'lib yetishadilar. Buning uchun albatta, bolalarga beg'ubor bolaligini quvonch va mo'jizaga to'ldiradigan ertaklarni ko'proq mutolaa qilib berish yoki ularni ertaklar olamiga sayohat qilishga o'rgatish kerak bo'ladi. Ertaklarda mavzular va qahramonlar rang-barangligi, ularning didaktik va majoziy ahamiyatga ega ekanligi eng asosiy omil hisoblanadi. Zero, aynan mana shu qahramonlar - obrazlar orqali biz bolalarga insoniy xislatlarni, mehr-

muhabbat, oqibat, do'stlik, mehnatsevarlik va vatanparvarlik kabi ijobiy xarakterlarni yoki buning aksi o'laroq salbiy jihatlar dangasalik, ikkiyuzlamachilik, sotqinlik va yovuzlikka qarshi kurashish kerakligi haqida ilk tushunchalarni beramiz [12]. Har bir ertakda bolalarni o'ziga jalb qilish uchun foydalaniladigan sehrli mavjudotlar yoki buyumlarning zamirida butunlay boshqa ma'naviy-axloqiy ma'nolar mavjud. Ular orqali yozuvchilar yaxshilik va yomonlik kurashini, inson

axloqini, iymon va umid, qurbonlik va najot g'oyalarini, kuch va mas'uliyat, nafs va sadoqat kabi insoniy va axloqiy tushunchalarni majoziy shaklda ifodalagan. Bunday fantastik ruhda shunday murakkab tushunchalarga izoh berish yozuvchilardan yuksak adabiy mahorat va tarixiy bilimlarni talab etadi. Majoziy mavjudotlar va buyumlarga yuklatilgan mas'uliyatli vazifa necha yillar osha bolalarning ong va dunyoqarashi rivojida o'z ifodasini topmoqda.

#### ADABIYOTLAR

1. K.Imomov, O'zbek xalq ertaklari: O'zbek folklorining epik janrlari, –T.: Fan, 1981
2. M.Koshg'ariy, Devonu lug'otit turk, 3 tom, 2000
3. Ю.М.Галковская, Имена персонажей Британских народных сказок и их использование в учебном процессе // Современное образование Витебщины. № 2(16), 2017
4. O'zbek Milliy ensiklopediyasi, Toshkent,2000
5. A.S.Azimova, Sharq va G'arb mamlakatlarida ertak atamasi va uning turlari, Interpretation and Researchers No 12(34)ISSN:2181-4163, 2024
6. O'zbek tilining izohli lug'ati, Toshkent: O'zbek tili, 2000
7. H. Frenzel, Literary Imagery and Symbolism. –Berlin: Akademie Verlag, 1980
8. J. Jacobs, English fairy tales, The Pennsylvania State University, 2005
9. <https://a-panache.com/2014/03/17/history-of-fairies/>
10. S.H.Akhmedova, Analysis of general characteristics of the most studied fairy tale genre in English and Uzbek folklore, ISJ Theoretical & Applied Science, 06 (86), 134-136. Soi: <http://s-oi.org/1.1/TAS-06-86-25>, 2020
11. <https://www.britannica.com/biography/J-R-R-Tolkien>
12. A.S.Azimova, Bolalar adabiyotida bosh qahramon obrazining ramziy ahamiyati,Ilm sarchashmalari, Ilmiy-nazariy, metodik jurnal 5/2, Indeks 1072,2023